

7035
\$91

BAEK MUN JONG
SULTANBEKOV R.M.
QURBONOV S.N.



TAEKWONDO TW




TOSHKENT

7A3.5
S 91

168/2642 n/8
5/14 2432/291

TAEKWONDO WT

o'quv-uslubiy qo'llanma



TOSHKENT – 2017

UO'K 796.856.2(075.32)
KBK75.715ya721
S 96

TAEKWONDO / Baek Mun Jong, Sultanbekov R.M., Qurbonov S.N. - Toshkent: ILMIY -
TEXNIKA AXBOROTI - PRESS NASHRIYOTI, 2017. - 112 b.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, O'rta maxsus kasb - hunar ta'limi markazi, Axborot metodik xizmati, O'zbekiston "Barkamol avlod" jismoniy tarbiya va sport jamiyati, O'zbekiston Taekwondo WT assotsiatsiyasi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti hamkorligida ishlab chiqildi.

ISBN978-9943-4852-0-4

Mualliflar:

Baek Mun Jong	- O'zDJTI, professor.
Sultanbekov R.M.	- O'zDJTning katta o'qituvchisi.
Qurbonov S.N.	- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi bosh mutaxassisi.

Taqrizchilar:

Kerimov F.A.	- Pedagogika fanlari doktori, professor.
Usmonxo'jayev T.S.	- Pedagogika fanlari doktori, professor.

Muzkur o'quv-uslubiy qo'llanma hozirgi zamon talablariga muvofiq ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasalarining talabalari hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga to'g'arak mashg'ulotlari o'tkazishi uchun mo'ljallangan bo'lib, Taekwondoning asosiy mazmuni, atamalari, qoidalari, tushunchalari hamda musobaqalarni tashkil etishning amaliy va nazariy asoslari ochib berilgan.

Asosiy e'tibor, Taekwondo usullarini bajarish, ularni texnik-taktik tomondan to'g'ri qo'llay olishga qaratilgan bo'lib, undagi rasmlar shug'ullanuvchilar uchun samarali o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

ISBN978-9943-4852-0-4

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti ilmiy-uslubiy kengashining 2016-yil 28-iyuldagi 4-sonli majlisida muhokamadan o'tgan va nashrga tavsiya etilgan. (2016-yil 28-iyul 4-sonli bayonnoma)

© BAEK MUN JONG., 2017
© ILMIY TEXNIKA AXBOROTI - PRESS NASHRIYOTI, 2017

SO'Z BOSHI

Jismoniy tarbiya va sport – xalqning umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning har bir fuqarosining jismoniy hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash asosidir.

Milliy g'oya asosida yosh avlodning ma'naviy – ma'rifiy tarbiyasi, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish hamda mustahkamlashni, sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yoshlarda faol hayotiy pozitsiya, yuksak ma'naviyat, yaxshilik va gumanizm g'oyalarini tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya va sport vositalari, shakllari hamda uslublaridan foydalanish ustuvor maqsadlardan biriga aylanishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanish istiqbollari O'zbekiston Respublikasini rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish, bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishni, aholining, ayniqsa, bolalar va o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishning faol shakllari ta'minlovchi amaliy tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelindi. O'zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov rahbarligida sportni rivojlantirish borasida mutaxassislar tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy sport inshootlari qurildi, yangi sport turlari rivojlanib bormoqda, turli miqyosdagi musobaqalar va turnirlar o'tkazilmoqda hamda ularda aholining turli qatlamlari vakillari ishtirok etmoqda, sportchilarimiz xalqaro maydonlarda yuksak natijalarni qo'lga kiritmoqda. Soha rivojlanishining huquqiy bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Taekwondo va boshqa sport turlarini rivojlantirish to'g'risidagi hukumat qarorlari shular jumlasidandir.

E'tirof etish joizki, jismoniy tarbiya va sport muammolarini hal etishga dasturli yondashuv soha rivojlanishining xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrda "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish dasturini tuzish to'g'risida"gi farmoni rahbariyatning o'sib kelayotgan avlod, uning jismoniy rivojlanishi to'g'risida g'amho'rlikning yana bir namunasidir. Bizningcha, farmon bolalar uchun eng ommabop va sevimli bo'lgan sport turlarini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi, shuningdek, turli yoshdagi o'quvchi-yoshlarning orasida sport turlarini ommalashuviga va sport bilan shug'illanishning erta davrlaridanoq eng iqtidorli yoshlarni aniqlash imkoniyatini beruvchi mezonlarni xalq va sport ta'limi tizimiga joriy etishga yordam beradi.

Bolalar-o'smirlar sportini rivojlantirish uchun majburiy jismoniy ta'lim tizimida o'smirlarning yuqori salomatlik darajasiga hamda bazaviy jismoniy tayyorgarlikka erishishlari, o'quvchi-yoshlar jismoniy imkoniyatlarining yoshga xos rivojlanish xususiyatlariga mos holda sport tayyorgarligi texnologiyalaridan foydalanish, sportda iqtidorlilarni aniqlash va rivojlantirishning yanada mukammal ushblaridan foydalanish, sport turlarini individual tarzda tanlashda ilmiy asoslangan holda yo'naltirish mazmuniy asosni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kid, o'z salomatligi haqida g'amho'rlik qilish madaniyatini erta yoshdan, oila, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi jismoniy tarbiya va sport ko'magida singdirish lozim. Muhimi kishilar so'zda emas, amalda o'z salomatliklarini qadrlashlari hamda uni milliy qadriyat sifatida avaylab-asrashlari zarur.

Hozirgi paytda jahonda yirik miqyosda aholini sport-sog'lomlashtirish harakatini yaratishga bo'lgan ehtiyoj shakllanmoqda. Turli xil davlat prezidentlarining maxsus dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishi, uning isboti bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda bu vazifalarni amalga oshirishda faol maqsadli ishlar olib borilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Sog'lom avlod uchun" xalqaro fondining ta'sis

etilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqarilgan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish dasturi bolalar va o'quvchi yoshlar o'rtasida "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" uch bosqichli sport o'yinlarini joriy qilish fikrimiz dalilidir. Ular jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklarni oldini olish, aholi turli qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb qilishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi shaxsning jismoniy va ma'naviy kamolotining muhim omili sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Insonparvar jamiyat rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida jismoniy tarbiya va sport sohasida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining harakat qobiliyatlarini rivojlantirish hamda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni bazaviy jismoniy tayyorgarlik asoslarini yaratishni o'quvchi-yoshlarda harakat ko'nikma va malakalarining yetarli zaxirasini shakllantirishi, ularni har tomonlama rivojlantirishini nazarda tutadi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, kollej va litseylardagi mavjud "an'anaviy" jismoniy tarbiya tizimi o'sib kelayotgan organizmning harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojni mustaqil qondira olmaydi. Jismoniy tarbiya jarayonini jadallashtirish va yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etish maqsadida ayrim mutaxassislar o'quvchi-yoshlarning harakat qobiliyatlarini hamda jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun sensitiv (qulay) davrlarda tanlab yo'naltirilgan yuklamalardan foydalanishni taklif etadilar.

Agar o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil oluvchi o'quvchilarning yoshi aksariyat sport turlarida ixtisoslashuvining boshiga to'g'ri kelishini e'tiborga olsak, bu vaziyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yoshda egallangan harakat ko'nikma va malakalarning, shuningdek, intellektual va jismoniy qobiliyatlarining katta zaxirasi kasb-amaliy harakatlarini tez hamda to'liq egallab olishi va katta yoshda yanada jismonan barkamollikka erishishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida har bir o'quvchining salomatlik holati, jismoniy tayyorgarligi va ehtiyojlarini qat'iy e'tiborga olish zarur. Bu talablarning buzilishi salomatlikka putur yetkazadi va mashg'ulotlar samarasini kamaytiradi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarda o'z organizmiga, o'z tanasiga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishni shakllantiruvchi, irodaviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalashga ko'maklashuvchi, sog'liqni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantiruvchi yagona o'quv jarayondir.

Maqsadli jismoniy tarbiya jarayoni o'quv jarayonining maqsadli rejalashtirilishiga bog'liqdir. O'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga ijobiy munosabatni shakllantirish o'quv jarayonini samarali tashkil etilishiga va aniq qo'yilgan pedagogik vazifalarga bog'liqdir.

Taklif etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanma zamonaviy talablar asosida tayyorlangan va umid qilamizki, o'quvchi-yoshlar o'rtasida ushbu sport turining yanada ommalashuviga yordam beradi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari,
texnika fanlari nomzodi U.Z. Salimov*

I – BOB. TAEKWONDO O‘ZI NIMA?

Taekwondo o‘zi nima? Agar sodda qilib aytganda, Taekwondo – bu qadimgi koreys jang san‘ati bo‘lib, qurolsiz holda o‘z-o‘zini himoya qilishning universal turidir. Taekwondo insonning doimiy rivojlanishi, ruhiy dunyosini takomillashtirishi va bировga zulm qilmaslik falsafasi asosida tuzilgan. Taekwondo insonda o‘ziga ishonchni tug‘diradi, zehnni intizomlab, boshqalarga yordam berish imkonini beradi. Haqiqiy Taekwondo shogirdi tinch, osuda hayot va tabiat bilan hamohanglikka (muvofiglikka) erishish uchun bu san‘atni tarqatadi. Taekwondo - bu nafaqat oliy darajadagi o‘z-o‘zini himoya qilish usuli, balki hayot tarzi (yo‘li) hamdir.

Taekwondo nomi uch so‘zdan iborat bo‘lib: “Tae” - oyoq m‘anosini, “kvon” - qo‘l degan ma‘noni va “do”- yo‘l degan ma‘noni anglatadi. Koreyada “DO”- yo‘lni barkamollikka erishish yo‘li hamda hayot yo‘liga falsafiy yondashuv nazarda tutiladi.

Zamonaviy Taekwondo asoschisi general Choy Xon Xi xisoblanadi. U 1946-yildan 1955-yilgacha jangovar kurash san‘ati turi sifatida Taekwondoni rivojlantirish va takomillashtirish uchun ulkan hissa qo‘shgan. Hozirgi paytda Taekwondo yakka kurash turi sifatida butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan.

Taekwondo bo‘yicha Osiyo va Jahon chempionatlari o‘tkazib kelinmoqda, shuningdek, Osiyo o‘yinlari dasturi hamda Olimpiada o‘yinlari dasturlariga kiritilgan.

Taekwondo hozir dunyoda juda ham mashhur. Bu qadimgi jangovar san‘at juda chiroyli, jo‘shqin, dinamik sport turi sifatida 170 dan ortiq davlatlarda rivojlanib kelmoqda. Bunday yakka kurashning ommabopligi koreys ustozlarining qadimgi mashq printsiplari va uslub g‘oyalarini zamonaviy sport bilan bog‘laganliklari natijasida Taekvando ajoyib barkamollikka intilish tizimiga, jozibador va jo‘shqinlikka ega bo‘ldi.

1.1. Taekwondo bilan shug'ullanishdan maqsad

Taekwondo bilan shug'ullanishdan maqsad – bu insonning jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy barkamolligining muvofiqligiga erishishdir. Qadimda, bu qoidalar “Mus’ul”, “mue” va “do” prinsiplarida ifodalangan.

Mus’ul – bu atama so'zma-so'z tarjima qilinganida “jangovar texnika bo'lib, Taekwondoda haqiqiy jangovar harakatlarni va o'z-o'zini mudofaa uslublari prinsiplarini gavdalandiradi.

Mue – bu jang san'ati hisoblanadi. Bu prinsip o'z ustida ishlash uslubi bo'lib, shogird nafaqat raqibini yengishni o'rganadi u o'zining kamchiliklarini ham yengishni o'rganadi; Taekwondo texnikalarini takomillashtirish orqali o'zining irodasini takomillashtiradi, o'zini anglash va barkamollikka erishish mashqlarini ijodiy jarayonga aylantirishga urinadi.

Do – kontekstda ma'naviy-axloqni tarbiyalash yo'lidir.

Bu prinsip insonning o'z tabiatini tushunishini, dunyoda o'z joyini anglashni va dunyo bilan o'zaro harakatlanish yo'lini gavdalandiradi.

Taekwondo jismoniy sifatlarni rivojlantiribgina qolmay, balki uning izdoshlarini falsafiy, ruhiy rivojlanish yo'lida shaxsni har tomonlama barkamollikka yetaklashda yordam beradi. Faqat shu jangovar san'at ichida bo'lgan ruhiy, jismoniy tayyorgarlik mashqlar yig'indisi Taekwondo bilan butun dunyoda shug'ullanadigan yoshlar qalbidan joy olgan. O'zbekiston respublikasi ham bundan mustasno emas. Albatta, hech qanday nodir kitob ham - murabbiy-ustoz o'rmini bosa olmaydi. Shu sababli ushbu qo'llanmani o'qib chiqqandan so'ng Taekwondoni sevib qolasiz va O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida ochilgan Taekwondo maktablarida mahoratli ustozlar qo'l ostida qadimgi san'atni o'rganishni boshlaysiz.

Shunday qilib, Taekwondoning maqsadi - insonga ruhiy, jismoniy mashqlar yig'indisi orqali barkamol shaxs bo'lib rivojlanishiga yordam berish hisoblanadi.

1.2. Taekwondoning paydo bo'lish tarixi

Bu jangovar san'atning rivojlanish ildizi uzoq tarixga ketganligi sababli (2,5 – 3 ming yil avval) uning ayrim turlarining rivojlanish davrining boshlanishini kuzatish murakkabdir. Jangovar Taekwondo san'atiga kelsak, u Koreyada paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lish manbai qadimgi koreys o'z-o'zini himoya qilish texnikasi Subakgidir. Koreyada yakkama-yakka kurash olib borishda texnik va taktik jihatdan bir-biridan farq qiladigan bir qancha milliy yo'nalishlar bo'lgan. Avvaliga, ayniqsa, Tekkyon mashhur hisoblangan. Yuz yillikning boshida Yapon okkupatsiyasi davrida milliy yakkama-yakka kurash maktabi arsenalida yaxshilaridan bo'lgan. Tibbiyot nuqtai nazar, ilmiy tahlil va mahorat (malaka) asosida sinchiklab saralash o'tkazilgan.

Taekwondo tarixi qadimgi rasm va tasvirlar bilan tasdiqlangan bo'lib, taxminan ikki ming yil oldin boshlangan.

Eramizdan avvalgi I asr oxirida hozirgi Koreya hududida 3 ta davlat bo'lgan: Koguryo, Pekche va Sila. Taxmin qilishlaricha shu davrda hozirgi Taekwondoning namunasi sifatida xizmat qilgan har xil jang tizimlari shakllanib boshlangan, jumladan, subak, tekkyon, chxaryok, orenkvon, yusul va boshqalar. 1790-yilda buyuk koreys olimi va davlat arbobi Donmu Li tomonidan qadimgi koreys jang san'ati haqida ma'lumotni aks ettirgan "Muetobotxonchji" risolasi yozilgan bo'lib, asosiy tarixiy hujjat hisoblanadi. Bu risolada qurol bilan jang olib borish hamda turli tizimlari va qo'l jangining ba'zi bir uslublari yoritilgan.

1.3. Taekwondoning zamonaviy tarixi

Taekwondo hozirgi tarixi 1973-yil 26-may oyidan boshlab Taekwondoning zamonaviy tarixi boshlandi, desak bo'ladi, chunki Seulda 35 ta turli mamlakatlarning vakillari ishtirokidagi ta'sis konferensiyasida Jahon Taekwondo Federatsiyasini tashkil etish qarori qabul qilingan. Bu konferensiya birinchi Jahon chempionati vaqtida 19 davlatdan 200 sportchilar ishtirokida bo'lib o'tdi. Bu

musobaqaning tashkilotchisi Koreya Taekwondo Assotsiatsiyasi edi. Chempionatda ishtirok etgan davlat vakillari va mehmonlar yangi tashkilotning – Jahon Taekwondo Federatsiyasi - World Taekwondo Federation (WTF) Nizomini qabul qildi. Jahon Taekwondo markazi - yangi tashkilotning shtab kvartirasi Kukkiwon bo'ldi. Doktor Kim Un Yong Prezident etib saylangan.

Boshidan Taekwondoni zamonaviy sport kabi rivojlantirib, uni Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish siyosati belgilangan edi. Agar biron-bir sport turi Olimpiadada ishtirok etishga da'vogarlik qilsa, Olimpiada xartiyasi talablariga javob berishi kerak. WTF tashkil qilinganidan boshlab, uning faoliyati Olimpiada xartiyasi mezonlariga mos kelishiga qaratilgan edi. Ustavga o'zgartirish kiritildi, sportchi uchun himoya anjomlari joriy qilindi, tashkilot tuzilmasi o'zgartirildi, musobaqa o'tkazish qoidalarini ko'rib chiqildi, hakamlarning baholash texnologiyasi yagona me'yorga keltirildi va musobaqalarda baholashning elektron tizimi tuzildi, danlarga saralash imtihonlarini tasniflash attestatsiyasi talablari standartlashtirildi.

Bu ustav 1975-yil 8-iyabrda xalqaro darajada ilk bor tan olindi. Xalqaro sport federatsiyasi (WSF-World sport federation) - jahonda Taekwondo manfaatlarini ifodalovchi tashkilot sifatida WTni tan olgan. WSF har bir sport turidan faqat bitta tashkilotni tan oladi.

1976-yil aprelda Taekwondo WTF Xalqaro armiya sport kengashi (WASM) tomonidan - 23-rasmiy sport turi sifatida tasdiqlangan.

1980-yil 17-iyulda Moskvada Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 83-Umumiy majlisida Taekwondo WTF Olimpiadadan oldin sport turi sifatida tan olingan.

1981-yil yanvarda WTF - Ilm-fan va jismoniy tarbiya bo'yicha Xalqaro Kengash (ICSSPE) tomonidan e'tirof etildi.

1981-yil iyul oyida Taekwondo rasmiy sport turi sifatida Jahon O'yinlarida (World games) ilk bor ishtirok etdi.

1985-yil iyun oyida XOQ Ijroi kengashi tomonidan 1988-yilda Seul shahrida (Koreya) Olimpiadada ko'rgazmali chiqish sifatida tasdiqlangan.

1986-yil may oyida Xalqaro Universitet sport Federatsiyasi (FISU) Ijroiya Qo'mitasi talabalari o'rtasidagi jahon Chempionati dasturiga Taekwondoni kiritdi.

1988-yil sentyabr oyida Seul Olimpiadasida Taekwondo ko'rgazmali chiqish turi sifatida namoyon bo'lgan.

1991-yil sentyabr oyida Taekwondo III Yaxshi niyat o'yinlari dasturiga rasmiy sport turi sifatida kiritilgan.

1992-yil avgust oyida Barselona Olimpiadasida Taekwondo WTF ko'rgazmali chiqish turi sifatida start oldi.

1994-yil sentyabr oyida XOQ yubiley sessiyasida Taekwondo (WTF)ni Sidney Olimpiadasi rasmiy dasturiga qo'shish bir ovoz bilan qabul qilindi.

1995-yil fevral oyida Taekwondo WTF Yozgi olimpiada sport o'yin turlari Xalqaro federatsiyasi Assotsiatsiyasi (ASOIF) tomonidan tan olingan.

Hozirgi kunda WTF 4-ta hudud ichida guruhlangan milliy Taekwondo assotsiatsiyalarini birlashtirib kelmoqda:

- Osiyo bo'yicha Taekwondo tashkiloti;
- Yevropa bo'yicha Taekwondo tashkiloti;
- Panamerika Taekwondo tashkiloti;
- Afrika Taekwondo tashkiloti.

Milliy assotsiatsiya vakillari Umumiy Majlis tashkilotining yuqori organi hisoblanadi. WTF quyidagi turnirlarni o'tkazadi:

- Taekwondo bo'yicha olimpiyada turniri;
- Taekwondo bo'yicha Jahon chempionati;
- Taekwondo bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati;
- Taekwondo bo'yicha Jahon kubogi;
- Taekwondo bo'yicha Talabalar o'rtasida jahon chempionati;
- Taekwondo bo'yicha harbiylar o'rtasida jahon chempionati;
- Taekwondo bo'yicha Osiyo chempionati;
- Taekwondo bo'yicha Yevropa chempionati;
- Taekwondo bo'yicha Panamerika chempionati;
- Taekwondo bo'yicha Afrika chempionati.

2003-yilda birinchi bor "PUMSE" bo'yicha namoyish qiluvchi tur sifatida jahon Chempionati o'tkazildi.

Tashkil etilayotgan va ruxsat berilgan yuqorida sanab o'tilgan turnirlar WTF tomonidan faqat dunyo tashkilotining milliy assotsiatsiyalar vakillari uchun o'tkaziladi. Shunday qilib, musobaqa texnikasini standartlashtirish va sport jangi jozibadorligi ta'sirchanligini kuchaytirish mumkin.

Taekwondo bo'yicha birinchi Olimpiya turniri Sidneyda (Avstraliya) 27-dan 30-sentyabrgacha 2000-yilda bo'lib o'tdi. Unda 4 vazn toifa bo'yicha yuzta sportchilar (erkaklar – 52 va ayollar–48) o'rtasida medallar uchun kuch sinashdi.

Avstraliya Milliy Olimpiya Qo'mitasi tomonidan chop etilgan ma'lumotga ko'ra, bu sport turi uchun sotilgan chiptalar 99,9%ni tashkil etdi. Musobaqaning yuqori ko'rsatgichlari quydagi sport turlarida bo'lgan: gimnastika, tennis (100 %), yengil atletika va triatlon (99.92%). Hozirgi kunda XOQ tomonidan to'rtta vazn toifasida erkaklar va ayollar o'rtasida musobaqa o'tkazish qaror qilindi. "Taekwondoni sport kabi rivojlantirib, biz uni dunyoga targ'ib etamiz. Taekwondoni faqat jang san'ati sifatida qoldirish juda ham sodda bo'lar edi" – degan edi WTF Prezidenti doktor Kim Un Yong. Kelgusi Olimpiada o'yinlariga musobaqa qoidalarini o'zgartirish, zamonaviy Taekwondo sport turining rivojlanish g'oyalarini aniqlaydi.

1.4. Taekwondoning tuzilishi

Zamonaviy Taekwondo beshta asosiy sohaning yagona mashqlar majmuasining integrallashuvidan iborat:

1. Kibon dongjak – asosiy uslub. Bu usul kelajakda barcha mashqlarni tirishqoqlik bilan bajarish natijasida egallanadigan mehnat poydevoridir.

2. Pumse – bu maxsus bajariladigan mashqlar majmuasidir, bunda imtator bitta yoki bir nechta raqib bilan hayot uchun haqiqiy jangni tasavvuriga keltirib jang qiladi va g'olib chiqadi. Amalda

pumse – MUE tamoyili jang san’ati sifatida tushunish, amalga oshirish asoslangan.

3. Kyorugi – jang. Jang olib borish texnika va taktikasini o’rgatish.

4. Hoshinsul – jangda o’zaro harakat va o’z-o’zini himoya qilish. Hayotning turli vaziyatlarida taekvondoning real uslublarini amalda qo’llashni o’rgatish.

5. Kyokpa – texnika namoyishi. Taekwondo bilan shug’ullanib inson imkoniyatlarini rivojlantirish va namoyish qilish.

1.5. Shug’ullanish uchun kiyim

Taekwondo bilan shug’ullanishda kiyiladigan kiyim – dobok deyiladi. Dobok inson qanday sport turi bilan shug’ullanayotganini va qanday darajada (kvalifikatsiya) ekanligini ko’rsatib turadi. Taekwondo kiyimini kiyar ekanmiz, biz shu kiyimga mos xulq-atvorda o’zimizni tutishimiz majburiyatini olamiz.

Dobok bir yaktak, ishton va kamardan iborat. Yaktak va ishtoni Taekwondo uchun an’anaviy bo’lgan oq rangli paxta materialidan tayyorlanadi. Yaktak yengining uzunligi panja qismigacha yetishi kerak, bu tizzasidan yuqori qismini berkitib turishi kerak. Ishtoni to’piqni yopib turishi kerak. Ko’krakning chap tomoniga, odatda, klub yoki Federatsiyasi gerbi tikiladi. Dobokga boshqa belgilar va har xil bezaklar taqish yo’l qo’yilmaydi.

Taekwondo bilan shug’ullanuvchilar yalangoyoq yoki maxsus yumshoq poyafzaldan (koreyschada ular “sogi” deb ataladi) foydalanishadi. Sogi oyoq bilan zarba berish imkonini beradi.

II – BOB. TAEKWONDO FALSAFASI

Taekwondo bilan shug'ullanuvchi shogird uning falsafasi yordamida o'zining "men" - egosidan qutilib, koinot bilan uyg'unlikda yashashi mumkin. Bu falsafasining markazida tabiatning ikki o'zaro harakatdagi qarama-qarshi kuchlar (In va Yan) turadi. O'zini tuta bilishlik sharoitida bu kuchlar teng bo'lgan balans holatiga erishilsa uyg'unlikka yetish mumkin. Kuchlardan faqat biri hukumron bo'lsa, natijada ruhiy buzilish yoki omadsizlikni bildiradi. Taekwondo bilan shug'ullanuvchi haqiqiy shogird tabiat bilan uyg'un va barqaror, tinch va osuda hayotga erishish uchun hayotning barcha jabhalarida bu san'atni targ'ib qiladi. Taekwondo faqat o'zini himoya qilish usuli emas, balki hayot yo'lidir.

Taekwondo falsafasi odamlar o'zlarini o'rab turgan atrofidagi borliq bilan uyg'unlikka erishishda axloqiy, ma'naviy va ruhiy tamoyillariga asoslangan. Taekwondoning asosiy maqsadi – insoniylik, adolat, donolik, ma'naviyat va ishonch, to'xtatish bostirish kuchlilar ~~kuchsizlarni~~ xor qilishga qo'ymaslik va yaxshijamiat qurish. Taekwondodan hech qachon xudbin yoki agressiv maqsadlar uchun foydalanish, bir shaxs yoki guruh bo'lib, savdo yoki siyosiy bosim vositalariga aylanish kerak emas. Taekwondoda quyidagi falsafiy tamoyillar o'rnatilgan bo'lib Taekwondo bilan jiddiy shug'ullanganlar hayotlarini shu falsafiy tamoyillar asosida qurishlari kerak:

1. Oson bo'lmasada borish kerak, hatto bu yo'l mushkul bo'lsada qilish kerak, albatta, yengil bo'lmasa ham.
2. Kuchsizlarga marhamatli bo'lish va kuchlilarga talabchan bo'lish.
3. Bor mavqeing va davlating bilan mamnun bo'lmaslik hamda hech qachon mahorat darajang bilan qoniqmasliging kerak.
4. Har doim boshlagan ishni u katta yoki mayda bo'lishiga qaramasdan tugatish.
5. Taekwondoni har qanday munosib shaxs uchun uning e'tiqodi, irqi, mafkurasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'rgatish uchun har doim tayyor bo'lishi.

6. Ezgu niyatlarni amalga oshirishda hech qachon bosim yoki tahdidlarga uchmaslik.

7. Dunyoqarash va mahoratni soʻz bilan emas, balki shaxsiy namuna bilan oʻrgatish.

8. Hatto hayotning murakkab holatlarida ham har doim oʻzligingizcha qolish.

9. Yosh boʻlganda - tana bilan oʻrgatadi, qari boʻlganda - soʻz bilan oʻrgatadi, oʻlimdan keyin - oʻzlarining gʻoyalari bilan oʻgatib - Ustoz boʻlib qolish.

Taekwondoni oʻrganish uchun asosiy sabab ruhiy yondoshish boʻlishi kerak. Baʼzilar uchun jismoniy formani ushlab turish yoki sportda maʼlum natijalarga erishish istagi boʻlishi mumkin. Taekwondo, bunday odamlar uchun juda yaxshi, ehtiyojlari uchun ham juda mosdir, ammo haqiqiy shogird hech qachon Taekwondoning falsafiy va maʼnaviy tomonlari, shuningdek, jismoniy sifatlari muhim roʻl oʻynashini unutishi kerak emas. Kimdir shu xatolikka yoʻl qoʻysa, haqiqiy shogirday bu sanʼat durdonalaridan bahramand boʻla olmaydi, his qila olmaydi.

Taekwondo, shuningdek, masʼuliyatli va halol boʻlish muhimligini oʻrgatib jamiyat bilan hamohanglikda boʻlish muhimligini oʻrgatadi. Taekwondo haqiqiy shogirdi qachon va qayerda oʻzini qanday tutish kerakligini biladi.

2.1. Taekwondo ruhi


Taekwondo tabiati ikki fundamental yoʻnalishlari boʻyicha tashkil etiladi: amaliy va mafkuraviy qiymati. Taekwondo amaliy qiymati har bir individual uslubning harakati va bu uslubni boshqarish tamoyiliga asoslangan. Taekwondo mafkuraviy qiymati Taekwondo gʻoyasini shakllantiruvchi, uch idealga asoslangan: texnik, badiiy va falsafiy gʻoyalari. Zamonaviy Taekwondo jismoniy tarbiya va musobaqalar bir usuli hisoblanadi.

Kuch bellashuvi - insonning tabiiy sezgini ifoda qilish hisoblanadi, jumladan, erkaklar oʻrtasida kuch bellashuvi odatiy hol edi.

Bellashuv Taekwondo rivojlantirish tabiatining bir shakli sifatida, uning to'liq ifodasiga asoslangan. Inson tabiatan, raqibidan ustun ekanini isbotlashni istaydi. Bu xohish qadriyatlar texnik jihatdan rivojlantirish uchun urinishlar ichiga aralashtirilgan. Ruh va ong bu ikki so'zlar, ularning o'xshashliklari uchun ishlatganda, tez-tez adashtirib turiladi. Taekwondo ruhi deganda, shug'ullanuvchining taekvondo qadriyatlarini tafakkuriga o'rnatish tizim jarayonini bildiradi. Inson yuqori qobiliyat darajasiga etganda, u qat'iyon va ta'sirchan harakat qiladi. Bu holatda Taekwondo ruhi o'rnatilgan va gavdalantirilgan desa bo'ladi. Taekwondo texnikasi mashg'ulotlarning so'ngi nishonidir. Taekwondo ichki qadriyatlari shu texnika orqali ro'yobga chiqadi va har qanday rivojlanish bosqichida bo'ladi. Taekwondo ruhi texnikadan boshlanadi va ichida rivojlanadi, texnika orqali mukammallikka etadi.

III – BOB. TAEKWONDONING ASOSIY TAMOIYILLARI

3.1. Hushmuomilalik (YE UL)



Hushmuomilalik qadimgi Sharq ustoz va donishmandlar tomonidan yozilmagan qonun bo'lib, bunda inson takomillashib barkamol jamiyat qurishga intiladi.

Taekwondo bilan shug'ullanuvchi o'z xarakterini shakllantirar ekan, uni mashq jarayonida amalda qo'llashga majbur. Har qanday muvaffaqiyatli inson uchun hushmuomilalik zarurdir. Biz bolalikdan xarakterimizni shakllantirib boramiz. Taekwondo bilan shug'ullanmaydiganga qaraganda shug'ullanuvchida hushmuomilalikni, takalluflikni, halollikni rivojlantirish ancha oddiy va yengil kechadi. Bundan tashqari, biz instrukor o'rtasidagi ierarxik hurmatni, odob qoidalarini, odamlarning yomon odatlariga chidamli bo'lishni, sovg'alar berganlarida nafsimizni tiyib, yomon holatlar kelib chiqishini aslo unutmasligimiz kerak.

Hurmatning zaruriy elementlari:

- O'zaro hurmatni rivojlantirish ruhi.
- Yomon odatlardan qutulish va boshqalarning yomon odatlariga sabr-toqatli bo'lish.
- Barchaga istisnosiz hushmuomala munosabatda bo'lish.
- Adolatli va insonparvarlik muhitini ushlab turish.

- Jang san'ati jamoasida Ustoz, instruktor, katta va kichik, jamiyatda har xil toifadagi insonlarga ierarxik munosabatda bo'lishga rioya qilish.

- Insonlar bilan munosabatda bo'lganda, odob qoidalarini qo'llab-quvvatlash.

- Insonlarning mavqei va ularning qadr-qimmatini hurmat qilish.

- Odamlarga samimiy va halol munosabatda bo'lish.

- Sovg'alar berish va olish egri talqin qilinmaslik uchun ulardan tiyilish.

3.2. Halollik (YOM CHI)

Bu so'zning ma'nosi istisnosiz barcha uchun tushunarli. Vijdonsizlik – Taekwondochi uchun noma'quldir.

U quyidagi tarzda paydo bo'ladi:

- Haqiqatni yolg'ondan ajrata bilish zarur;

- Bir narsani aytib boshqa xil qilmaslik kerak;

- O'z bilim va texnikasining kamchiliklarini, mashg'ulot sharoitini chiroyli so'zlar bilan xas-po'shlamaslik kerak;

- Yuqori kamar darajasi uchun murabbiydan yolg'ovish yoki hatto, uni sotib olish uchun harakat qilish mumkin emas;

- Boshqalarga shaxsiy ustunligini namoyish qilish uchun kamarga ega bo'lishni istamaslik, noxaqligini halol tan olish kerak.

- O'z ustunligini ko'z-ko'z qilib namoyish qilish mumkin emas;

- Zarba kuchini namoyish paytida oldindan arralab qo'yilgan taxtalardan foydalanish mumkin emas;

- Yoshlar fikrini mensimaslik mumkin emas.

3.3. Bardoshlilik / Qat'iylik (IN NAE)

O'jarlik bilan qat'iylikni aralashtirib bo'lmaydi. O'jarlik kuch-sizlar qismati. Qat'iylik qalbni poklaydi va mukammallashtiradi. Qat'iy insonga baxt va omad doim hamroh bo'ladi. Taekwondoda qat'iylik qo'yilgan maqsadga erishish uchun yordam beradi, buni sportchi o'zi bajara olishi lozim. Siz o'zingiz maqsadingizni ifodalab bunga atrofda qilarni jalb qilmay to'siqlardan o'tib maqsadingizga

erishganingiz yaxshi. Usta bo'lishning yagona siri - bu barcha qiyinchiliklarni bardoshlilik va qat'iylik bilan yengib o'tishdir. Baxt va muvaffaqiyat ko'pincha qat'iyatli odamlarga beriladi. Biron-bir maqsadga erishish uchun uni aniqlab, sabr-toqatlik bilan unga erishish kerak. "Kim mayda deb qat'iylik qilmas ekan, katta ishda undaylarga muvaffaqiyat kamdan-kam uchraydi", - degan edi Konfutsiy.

3.4. O'z-o'zini nazorat qilish va o'zini tutabilish (GUKGI)

O'z-o'zini nazorat qilishmi yoki O'zini tuta bilishmi. Bu xususiyat sportchiga kundalik hayotda ham, mashq zalida va musobaqada ham muhimdir. Agar insonda, jamoada chiqisha olmaslik xususiyati bor ekan, unda o'zini tuta bilishligida muammo bor. Hech qachon sparringda o'zini yo'qotmaslik kerak, bu ko'ngilsiz oqiballarga keltirishi mumkin. O'zini tuta bilish har bir Taekwondo sportchisi uchun muhim hayotiy xususiyatdir.

"O'z-o'zini yengan kuchli, birovni emas", - degan Lao Tzi.

3.5. Ruh tiyiqsizligi (BAEKJUL BOOLGOOJ)

Maqsadga erishish yo'lida Sizning qarshingizdan kim chiqishidan qat'i nazar bu muhim emas. Siz oldingizga dunyoni sof va insonparvar qilishdek mushkul maqsadni qo'ydingiz, bu yo'ldan sizni adashtirishadi, qarshi turishadi, xatto yo'ldan urishga harakat qilishadi. Agar maqsadingiz adolatli, sof va insonparvarlik ekan - yo'lingizdan qaytmang. Ruhingiz qat'iyatligini va mustahkamligini namoyish eting. O'tgan ajdodlarimiz mustahkam ruhlari insoniyat kelajagini qutqarib qolganliklarini tarix darslarida ko'pgina tasdig'ini topasiz.

"Bu yerda uch yuz o'z burchlarini ado qilganlar dafn etilgan". Bu oddiy epitafiya insoniyat tarixida eng buyuk jasoratining biriga tegishlilikini anglatadi: uch yuz Spartaliklar o'limdan ham qo'rqmay, butun bir dushman armiyasiga qarshi chiqib, dunyoga ruhlarining bukilmasligini ko'rsatishdi. Taekwondo bilan shug'ullanuvchilar halol va samimiy bo'lishlari kerak. Adolatsizlik bilan to'qnashganlarida, hech narsadan qo'rqmasdan, kim va qancha raqib qarshilarida

turishidan qat'i nazar, ular qat'iyan va keskin harakat qilib ruhlarining mustahkamligini namoyish etishlari kerak.

3.6. Etiket (Odab qoidalar)

Taekwondo adab normalarida ko'pgina inson qadr-qimmatini tushunchalari mavjud bo'lib, shular asosida shug'ullanuvchilar ma'naviy fazilatlarini tarbiyalanadi. Yuqori darajadagi etika qoidalariga nafaqat o'z klubi ichida, balki tashqarisida ham rioya qilish kerak. Taekwondoda o'n yilliklar davomida o'ziga uning xos odob qoidalarini ishlab chiqilgan. Asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Taekwondoda sportchilar bir-biriga ta'zim ("kyone") qilib qo'l siqishib salomlashishadi. Shuningdek, instruktor va kattalarga biron-bir narsani olish yoki berishda ikki qo'l va ta'zim bilan bajariladi ("kyone").

2. Mashg'ulot zaliga kirganda o'ng qo'l kaftini chap ko'krakka yurak qarshisiga qo'yib, burilib milliy bayroqlarga ta'zim ("kyone") qilinadi.

3. Taekwondochi zalga kirib, avval murabbiyga ("kyone") ta'zim (instruktorga) va keyin qolgan Taekwondochilarga ta'zim qilishi kerak.

IV – BOB. WT TAEKWONDO ATAMALARI

Taekwondo - qo'l va oyoq yo'li;

KUG KI - bayroq;

PUMSE - majmua yig'indisi;

KYORUGI - erkin sparring;

DJAN - berilgan shakldagi mashqlar;

MACHJU-KYORUGI – berilgan erkin sparring shakli;

MACHJU- BOGU - berilgan bir qadamli sparring shakli;

SUL - texnika;

DJIRUGI-SUL – musht zarbalari texnikasi;

CHIRUGI-SUL – qo'l bilan sanchqi zarbalar texnikasi;

CHIGI-SUL –keskin zarbalar texnikasi;

MAKKI-SUL – himoya texnikasi;

CHAGI- SUL – oyoq bilan zarbalar texnikasi;

HOSIN- SUL –o'z-o'zini himoya qilish texnikasi;

DUK-SUL-PUM-YONG – maxsus texnika;

KYO PA – predmetlarni sindirish;

KIXAP – qisqa kuchli qiyqiriq;

DOYANG – sparring uchun maydoncha;

DOJAN – mashg'ulot uchun zal;

KIP –o'quvchi darajasi (10 dan 1 gacha);

DAN – master darajasi (1 dan 9 gacha);

PUM – bolalar master darajasi (1 dan 3 gacha);

KON-KIK – hujum zarbalar seriyasi;

PALL CHAGI SAM BON TARI– hujumda oyoq bilan 3 ta zarba berish topshirig'i;

XAN BON (DU BON, SE BON) KYORUGI – sparringda 1 (2, 3) qadam tashlash topshiriq shakli.

Mashg'ulot vaqtida qo'llaniladigan quyidagi buyruqlar va atamalar:

DJUN BI – tayyorlaning;

SHIDJAK –start, boshlang; (dj-j)

KI MAN – to'xtang, tugating;

CHARYOT – rostlan;

MOYO – saflaning;

XECHYO – tarqaling;
PARO – qaytish, oldingi holatgaqaytish;
TIRO TURA – orqaga burilish, 180° orqaga burilish;
PHALPAKO – holatni o'zgartirish;
GYO DE – o'zgartirish (vazifani);
SO – tik turish (erkin holatda);
IROSOT – turing;
DJA YAN U – burilib, bir-biriga ta'zim qilish;
KYONE – ta'zim;
BON UI CHI – joyiga qaytib;
TIO – yugurib;
UYRO TO – sakrashlar;
AN DJYA – o'tirmoq;
KALLYO – pauza, to'xtash;
KEYSOK – davom etish;
DJUL – saf;
MURIP KURO KYONE – tizzalarda ta'zim;
CHYON – ko'k;
XON – qizil;
KAM CHYON – jarima balli;
XECHON – raund;
SUN – g'alaba;
TVE-CHAN – diskvalifikatsiya;
UNGYO – hujum (hujum qilayotgan);
MANO – himoya (himoyalayuvchi);
FURIO-E-MACHOSA – tartib bo'yicha harakat (sanoq bo'yicha);
FURIO-OBCHI – erkin holda harakat (sanoqsiz holda).

Gavdaning zarba beruvchi, blok qo'yuvchi qismlari va qo'llar holati (panjalar):

PXAL – qo'l;
DJUMOK – musht;
TIN -DJUMOK – mushtning orqa tomoni;
ME-JUMOK – mushtning negizi (chimchaloq tomonidan);
PYON DJUMOK – tekis musht (yarim yopiq, barmoqning 2-suyagi);

PAM JUMOK – oʻrta barmoq suyaklari oldinga chiqarilgan musht (kashtan shaklidagi musht);

SON – panja;

PATAN-SON – kaft negizi;

SON-NAL – kaft qirrasi (chimchimaloq tomonidan);

SON-NAL-DING – kaft qirrasi (bosh barmoq tomonidan);

KOMBE- SON – bilak;

KIT – barmoq.

SON-KIT – barmoq uchlari;

GAVI-SON-KIT – koʻrsatkich va oʻrta barmoq;

XAN-SON-KIT – koʻrsatkich barmoq;

AGI-SON – bosh barmoq va koʻrsatkich barmoq vilkasi;

PXAL – MOK – bilak;

AN-PXAL-MOQ – bosh barmoq tomonidan bilak;

PAKKAT-PXAL-MOK – chimchimaloq tomonidan bilak;

PXAL-GUP – tirsak.

Oyoq holati (tovonlar):

PAL – oyoq;

BAL – tovon;

BAL-NAL – chimchimaloq tomonidan tovon qirrasi;

BAL-NAL-DING – bosh barmoq tomonidan tovon qirrasi;

BAL-PADAK – tovon kafti yuzasi;

AP-CHUK – barmoq boʻgʻimlari ostidagi kaftning old qismi;

DIT-CHUK – kaft tomonidan tovon;

DIT-KUM-CHI – Ahill payi tomonidagi tovon ;

MURIP – tizza.

Qoʻl bilan (musht, panja, tirsak) zarbalar:

DJUMOK-CHIRIGI – oldinga musht bilan toʻgʻridan-toʻgʻri zarba;

XAN-BON-DJUMOK-CHIRIGI – musht bilan bittalik zarba;

DU-BON-DJUMOK-CHIRIGI – musht bilan ikkita galma-gal beriladigan zarba;

SE-BON-DJUMOK-CHIRIGI – musht bilan uchta galma-gal beriladigan zarba;

DU-JUMOK-CHIRIGI – bir vaqtning o'zida ikkala musht bilan zarba;

DJUMOK-BARO-CHIRIGI – oldinga chiqarilgan bir xil oyoqqa musht bilan zarba;

DJUMOK-CHETTARI - CHIRIGI – bir vaqtning o'zida ikkala musht bilan DJUGAN-TOLYO –CHAGI holatdagiday zarba;

DJUMOK-YOP- CHIRIGI – musht bilan yon tarafga zarba;

DJUMOK-SEVO-CHIRIGI– musht bilan vertikal holatda zarba;

DJUMOK-DJECHE-CHIRIGI – mushtning teskari tarfi bilan zarba;

DJUMOK-DOLO-CHIRIGI – musht bilan doira bo'yicha zarba;

PON-DJUMOK-CHIRIGI – yarim yopiq musht bilan zarba (barmoq suyaklari bilan)

BAM-DJUMOK-CHIRIGI –o'rta barmoq suyaklari oldinga chiqarilgan musht bilan zarba (musht kashtan shaklida);

KUN-DOL-CHOGI – musht bilan kichik bir aylana bo'yicha zarba;

DING-DJUMOK-APE-CHIGI –mushtning orqa bilan oldinga zarba;

DING-DJUMOK-PAKKAT-CHIGI – mushtning orqa tarafi bilan yon tarafga zarba;

ME-DJUMOK-CHIGI - mushtning negizi bilan zarba.

Ochiq panja bilan

PON-SONKIT-SEVO-CHIRUGI – barmoq uchlari bilan zarba (vertikal qo'yilgan kaft bilan);

PON-SONKIT-OPO-CHIRUGI – barmoq uchlari bilan zarba (kaft bilan pastga);

PON-SON-KIT-DJECHE-CHIRUGI – barmoq uchlari bilan zarba (kaft bilan tepaga);

CONNAL-AN-CHIGI – panja qirrasi bilan ichkariga zarba;

SONNAL-PAKAT-CHIGI –panja qirrasi bilan tashqariga zarba;

SONNAL-DING-AN-CHIGI – panja qirrasi bilan bosh barmoq tomondan ichkariga zarba;

SONNAL-DING-PAKKAT-CHIGI – panja qirrasi bilan bosh barmoq tomondan tashqariga zarba;

GAVI-SONKIT-CHIRUGI – ikki barmoq bilan zarba (ko'rsat-kich va o'rta);

AGISON-CHIGI – changalli zarba, vilkasimon zarba (changalni bosh va ko'rsatkich barmoqlar hosil qilishadi);

XAN-SONKIT-CHIRUGI – bitta barmoq bilan zarba (ko'rsatkich);

SONKIT-CHIGI – barmoq uchlari bilan zarba (bir chimdim hosil qiluvchi);

PATANSON-CHIGI – kaft negizi bilan zarba.

Tirsak bilan

PXALKUP-CHIGI – tirsak bilan zarba;

PXALKUP-OLO-CHIGI – tirsak bilan tepaga zarba;

PXALKUP-DLLYO-CHIGI – tirsak bilan aylana bo'ylab zarba;

PXALKUP-YOP-CHIGI – tirsak bilan yon tomonga zarba;

PXALKUP-DIT-CHIGI – tirsak bilan orqaga zarba;

MONGE-CHIGI – bo'g'uvchi zarba (birdaniga ikkala tirsak bilan amalga oshiriladi).

Bilak bilan

PXALMOK-CHIGI – bilak bilan zarba;

PXALMOK-PAKKAT-CHIGI – bilak bilan tashqariga zarba;

PXALMOK-AN-CHIGI – bilak bilan ichkariga zarba.

Taekwondoda oyoq bilan zarbalar

AP-CHAGI – oyoq bilan oldinga zarba;

MIRO-CHAGI – butun tovon bilan turtish;

CHIKO-CHAGI – tepadan pastga qisqa butun tovon bilan oyoqda zarba;

NERYO-CHAGI – oyoq bilan yuqoridan pastga zarba;

NERYO-AN-CHAGI – oyoq bilan yuqoridan pastga tashqaridan ichkariga zarba;

NERYO-PAKKAT-CHAGI – oyoq bilan yuqoridan pastga ichkaridan tashqariga zarba;

TOLLYO-CHAGI – oyoq bilan aylana ichi bo'ylab zarba;

AP - TOLLYO-CHAGI – oyoq bilan aylana bo'ylab oldinga tepaga tizzani hujum o'qidan chiqarmagan holda zarba;

PIT-CHAGI – oyoq bilan 45 daraja burchak ostida ichkariga zarba;

PANNAL-CHAGI – oyoq bilan kichik aylana bo'ylab ichkariga tizzani hujum o'qidan chiqargan holda zarba;

PITURO-CHAGI – oyoq bilan kichik aylana bo'ylab tashqariga zarba;

TIT-CHAGI – oyoq bilan orqaga zarba;

SEVO-AN-CHAGI – oyoq bilan tashqaridan ichkariga vertikal zarba;

SEVO-PAKKAT-CHAGI – oyoq bilan ichkaridan tashqariga vertikal zarba;

PANDE-CHAGI – to'g'ri oyoq bilan zarba;

FURIO-CHAGI – oyoq bilan yulib oluvchi zarba;

NAKO-CHAGI – oyoq bilan ilgak shaklidagi zarba;

SURO-CHAGI – ilib olish zarbasi (tagidan chopish);

NULLO-PAKKAT-CHAGI – tashqaridan bosish zarbasi (YOP-CHAGI va MIRO-CHAGI orasidagi o'rtacha) zarba beruvchi oyoq to'voni tashqariga yo'naltirilgan;

NULLO-AN-CHAGI – bosish ichki zarbasi (zarba beruvchi oyoq to'voni ichkariga yo'naltirilgan);

MURIP-CHAGI – tizza bilan zarba;

PAL-OLLIGI – oyoqni to'g'ri silkitish;

DARI-FURIGI – oyoqni aylana bo'ylab silkitish.

Komponentlar

AP-PAL-CHAGI – oldida turgan oyoq bilan zarba;

DVI-PAL-CHAGI – orqada turgan oyoq bilan zarba (D harfi yumshoq talaffuz etiladi, xuddi D va T o'rtasidagiday, V harfi talaffuz etilmaydi);

AN-CHAGI – oyoq bilan ichkariga zarba;

BAKKAT-CHAGI – oyoq bilan tashqariga zarba; (B harfi yumshoq talaffuz qilinadi, P va B o'rtasida talaffuz qilinadi);

AP-CHUK-CHAGI – barmoq bolishchalari bilan zarba;

DVI-CHUK-CHAGI – tovon bilan zarba; (D harf yumshoq T va D o'rtasidagiday)

PAL-PADAK-CHAGI – butun tovon bilan zarba; (B harfi yumshoq talaffuz qilinadi, deyarli Pkabi);

PAL-NAL-CHAGI – tovon qirrası bilan zarba (B harfi yumshoq, deyarli P kabi);

PAL-DING-CHAGI –tovonni ko'tarish orqali zarba (B harfi yumshoq talaffuz qilinadi, deyarli P kabi);

2.5. Video hakam va Rekorder joylashtirilishi: Recorder va Video hakam №1 tashqi chiziqdan 2m masofada joylashadi. Recorder va Video hakam o'rni musobaqa o'tkazish zaliga qarab va ommaviy axborot vositalar, to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatish yoki sport turi taqdimotini yaxshilash uchun o'zgartirilishi mumkin.

2.6. Murabbiylar joylashtirilishi: Murabbiylar tashqi chiziqning har bir tomoni ustida yoki 1m masofada joylashadilar. Murabbiylar o'rni musobaqa o'tkazish zaliga qarab, to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatish yoki sport turi taqdimotini yaxshilash uchun o'zgartirilishi mumkin.

2.7. Tekshiruv stolining joylashtirilishi: tekshiruv stoli sportchilarning himoya anjomlarini tekshirish uchun musobaqa o'tkazish kirish joyi yaqinida joylashadi.

Izoh № 1

Elastik Mat - (bo'ya): matlarning egiluvchanligi va sirpanish darajasi musobaqa boshlanishdan oldin WT tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.


Izoh № 2

Rang: matlar rang-balangligi, uning yuzasiga yorqin chiroqlar bilan shug'alantushirib, ishtirokchilar yoki tomoshabinlar ko'zlarini charchatishi kerak emas. Matlar rangbarangligi musobaqa joyi yuzasi-ning rangini, sportchi anjomi rangini, uniforma –rasmiy kiyim rangini hisobga olishi kerak.

Izoh № 3

Inspeksiya stoli: hakam, inspeksiya stoli ortida turib, ishtirokchilar ko'z oldida barcha uskunalar WT tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga firmalar mahsuloti va ishtirokchining antropometrik ma'lumotlari mos kelishini tekshiradi. Agar mos emasligi aniqlansa, u holda, ishtirokchidan himoya anjomlarini almashtirish so'raladi.

Sakkiz burchak shakl



9.2. Musobaqa marosimi

1. Ishtirokchilarni taklif etish: ishtirokchi familiyasi Hakam tomonidan belgilangan jang boshlanishidan o'ttiz daqiqa oldin uch marta e'lon qilinishi kerak.

2. Jismoniy ko'rik, sport formasi va anjomlar inspeksiyasi: taklif etilgandan so'ng WT tomonidan tayinlangan hakam tomonidan alohida inspeksiya stoli ortida ishtirokchilar jismoniy tekshirishdan, qatnashuvchilar formasi va anjomlari, ishtirokchilar ko'zi oldida tekshiruvdan o'tishi kerak. Bunda ishtirokchi hech qanday nafrat belgilarini ko'rsatishi kerak emas va bundan tashqari, boshqa ishtirokchiga zarar keltiruvchi hech qanday predmet olib kelishi kerak emas.

3. Jang maydoniga kirish: inspeksiyadan so'ng ishtirokchi bir lahzadan – murabbiy, bir jamoa shifokori yoki (agar shunaqasi bo'lsa) fizioterapevt bilan kutish hududiga o'tishi kerak.

4. Jang boshlanishidan oldingi va tugaganidan keyingi marosim tartibi:

4.1. Jang boshlanishidan oldin Markaziy hakam "Chon Xon"ni taklif etadi. Ikkala ishtirokchi ham chap tirsak ostidagi shlemni mahkam ushlab jang maydoniga chiqishadi. Agar hakamning "Chon Xon"ni e'lon qilgan vaqti bo'yicha Murabbiy hududida ishtirokchilarning biri hozir bo'lib, to'liq tayyor emas, shu jumladan, barcha himoya anjomlari va formani kiyimagan holda mavjud bo'lsa va hokazo, u jangdan chetlatilgan deb hisoblanib, hakam raqib g'olib deb e'lon qiladi.

4.2. Ishtirokchilar bir-biriga qaragan holda hakamning buyrug'iga binoan, bir-biriga salom berishi kerak "Charyot" (rostlan) va "Kyonne" (ta'zim). Ta'zim "Charyot" tabiiy holatidan amalga oshirilgan bo'lishi kerak, bosh bilan bukilgan 45 daraja burchak ustida, qiya 30 daraja burchak ostidadan katta. Ta'zimdan so'ng ishtirokchilar o'z shlemlarini kiyishi kerak.

4.3. Hakam "Chunbi" (tayyorlaning) va "Sijak" (boshlandi) buyrug'i bilan jangni boshlanishi kerak.

4.4. Jang har bir raundda hakamning "Sijak" (boshlandi) buyrug'i bilan boshlanishi kerak.

4.5. Jang har bir raundda hakamning "Kiman" (oxiri) buyrug'i bilan tugatilishi kerak. Agar hakam "Kiman" (oxiri) e'lon qilmasa ham jang vaqti tugaganligi sababli jang tugadi, deb qabul qilinishi kerak.

4.6. Hakam jangni "Kalyo"ni (to'xtatish) e'lon qilib to'xtatib turishi mumkin va "Kesok" (davom) buyrug'i bilan jangni davom etishi mumkin. Hakam qachon "Kalyo" buyrug'ini bersa, rekorder yozuvchisi darhol jang vaqtini to'xtatishi kerak, hakam qachon "Kesok" buyrug'ini bersa, rekorder yozuvchisi darhol jang vaqtini yurgizishi kerak.

4.7. Oxirgi raunddan so'ng hakam g'olib tomonga qo'lini ko'tarib, g'olibni e'lon qiladi. Ishtirokchilar o'z joylarini egallab, bir-biriga qaragan bo'lishi kerak. Ishtirokchilar hakam g'olibni e'lon qilgandan so'ng ta'zim almashishlari kerak.

4.8. Ishtirokchilar ketishi.

5. Jamoa musobaqasini o'tkazish tartibi.

5.1. Har ikkala jamoa ishtirokchilari 1-cheklovchi chiziqdan taqdim etilgan ariza bo'yicha bir-biriga qaragan holda bir chiziqda saflanishlari kerak.

5.2. Jang boshlanishidan oldingi va tugashidan keyingi marosim tartibi bu qoidaning 4-bandidagiday o'tishi kerak.

5.3. Har ikkala terma jamoa jang maydonini tark etib va barcha janglar davomida murabbiy hududida qolishlari kerak.

5.4. Har ikkala jamoa darhol final jangi tugaganidan keyin musobaqa joyida saflanishlari kerak.

5.5. Hakam qo'lini g'olib qozongan jamoa tomonga ko'tarib, g'olib jamoani e'lon qilish kerak.

9.3. Musobaqalarni tashkil etish tasnifi va usullari

1. Musobaqa tasnifi.

1.1. Yakka tartibdagi musobaqa bir vazn toifasi ishtirokchilari o'rtasida o'tkazilishi kerak. Agar kerak bo'lsa, birlashgan toifani

yaratish uchun yaqin vazn toifalari birlashtirilishi mumkin. Hech bir sportchi bitta musobaqada bir necha vazn toifasida ishtirok etish huquqiga ega emas.

1.2. Jamoa musobaqalari: Taekwondo WT bo'yicha jahon Kubogini o'tkazish standartiga mos og'irlik toifalarini tashkil etish usullari.

2. Musobaqa tashkil etish usullari.

2.1. Yakka tartibdagi musobaqalar.

2.2. Aylana tizimi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar.

3. Olimpiya o'yinlarida Taekwondo WT bo'yicha musobaqalar individual tizim bo'yicha raqiblar o'rtasida yutqazgan chiqib ketish tizimi va tasalli berish janglari o'tkaziladi.

4. Xalqaro darajadagi barcha musobaqalar WT tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan har bir vazn toifasi bo'yicha kamida 4 mamlakatdan va kamida 4 ishtirokchi bo'lishi kerak. Agar musobaqalarda vazn toifalarida 4 tadan kamroq ishtirokchilar bilan o'tkazilgan bo'lsa, xalqaro miqyosdagi musobaqalar rasmiy natijasi sifatida tan olinmasligi mumkin.

5. Gran Pri jahon Federatsiyasi Taekwondo WT bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish Gran Pri bosqichlarida jahon Federatsiyasi Taekwondo WT qabul qilgan standartlar tartibi bo'yicha bo'ladi.

Talqin:

1. Musobaqa davomida individual natijalar asosida g'oliblarni aniqlash, ammo jamoa sinov natijalari yig'indisi, barcha individual natijalar yig'indisiga ko'ra belgilanadi.

Ball tizimi.

Jamoa o'mini aniqlashda ball hisoblash uchun qo'llanma:

"Jang maydoni"ga rasmiy vazn tortilishidan so'ng, har bir ishtirokchi uchun - 1 balldan qo'shiladi;

- Bir (1) ball har bir g'alaba uchun;
- Yetti (7) ball bitta oltin medal uchun;
- Uch (3) ball bitta kumush medal uchun;
- Bir (1) ball bronza medal uchun;

Agar ikki jamoadan ortiq jamoa bir xil ballga ega bo'lsa, natija quyidagi mezonlarga muvofiq belgilangan bo'lishi kerak:

- 1) Jamoa tomonidan qo'lga kiritilgan medallar soni orqali;
- 2) O'gir vazn toifasida ko'proq ball toplash orqali.
2. Jamoa musobaqalarida har bir jamoa natijasi jamoa-individual natijalari orqali belgilanadi.

Izoh № 1

Vazn toifalarini birlashtirish:

Vazn toifalarini birlashtirganda Olimpiya vazn toifalariga amal qilish lozim.

Musobaqalarning qisqa qoidalari, "kyorugi" bo'limi:

1. Musobaqa uchun maydonning o'lchami 8x8 bo'lishi lozim.
2. Ishtirokchilarning kiyimi va jihozlari:
 - 2.1. Ishtirokchi himoyalovchi nimcha, shlem, beldan pastki qismni himoyalovchi(bandaj), yelka va tizzalariga qoplama, perchatka va kapaga ega bo'lishi lozim.
 - 2.2. Beldan pastki qismni himoyalovchi(bandaj), yelka va tizzalarga qobiqlar ham Taekvando kostyum (tobok) tagidan kiyilishi lozim.
3. Sportchilar yoshi bo'yicha vazn toifalari hamda jinsi bo'yicha taqsimlanadi.
4. Kurashning davomiyligi har biri ikki minutdan bo'lgan uch raunddan iborat, raundlar o'rtasida dam olish bir daqiqa. Uch raund yakun topgandan so'ng va bir daqiqa dam olingandan so'ng ochkolar teng bo'lganida, to'rtinchi raund o'tkaziladi va raund davomida kim dastlabki ballarni qo'lga kiritga g'olib deb e'lon qilinadi.
5. Ishtirokchilar vazn o'lchash marosimi musobaqa boshlanishiga bir kun qolganda amalga oshiriladi. Birinchi marotaba vaznini aniqlash jarayonidan o'tmagan ishtirokchiga rasmiy vazn o'lchash paytida yana bir bor vazn o'lchash imkoniyati beriladi.
6. Ruxsat berilgan texnik uslublar:
 - 6.1. Musht texnikasi: musht texnika uslublari qattiq qisilgan mushtning ko'rsatkich va o'rta barmog'ining old yuza qismini qo'llagan holda bajariladi.
 - 6.2. Oyoq texnikasi: oyoqlar texnika uslublari oyoqning to'piq qismini qo'llagan holda bajariladi.
7. Hujum uchun ruxsat berilgan joylar:

7.1. Tana: himoyalovchi nimcha bilan yopilgan joylarga musht va oyoqlar bilan zarba berishga ruxsat beriladi, ammo umurtqaga zarba berish taqiqlanadi.

7.2. Yuz: yuzning old qismi, gardan istisno, faqatgina oyoq bilan zarba berishga ruxsat beriladi.

8. Ruxsat berilgan texnik uslublar hujum uchun ruxsat berilgan joylarga aniq va kuchli zarba bilan bajarilganda ochkolar hisoblanadi.

Ballarni hisoblash:

Bir ball – nimchaga musht bilan zarba;

Ikki ball – nimchaga oyoq bilan zarba;

Uch ball – aylanib nimchaga oyoq bilan zarba;

Uch ball – oyoq bilan boshga zarba;

To'rt ball – aylanib oyoq bilan boshga zarba.

Opponentga har bir "Kamchjom" uchun bir ball qo'shiladi.

Ochkolarni hisoblash:

- agarda boshga zarbani datchik hisobga olmasa, unda hakamlar ballni mustaqil qo'yishadi;

- agarda ishtirokchi boshiga berilgan zarba tufayli yiqilsa va hisob boshlansa, ammo elektron tizim tomonidan ball hisoblanmasa, hakam qarorni qabul qilish uchun takroriy video lavhani ko'rishni talab qilishi mumkin.

- boshga jumladan, uning ochiq qismiga zarbalar uchun videolavhalar oldindan qilingan.

Oldindan g'alabani qayd etish:

- Oldindan g'alabani qayd etish 20 ball farq bo'lganida beriladi (avval 12 ball edi), bunda yarim final va final uchun 20 ballik farq muddatdan oldingi g'alaba uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

- Ishtirokchi jang davomida o'nta "Kamchjom" olsa, mag'lub deb hisoblanadi.

Oltin ball:

- uch raunddan so'ng hisob teng bo'lganida, davomiyligi bir daqiqa bo'lgan 4-raundda ishtirokchilarning qaysi biri birinchi bo'lib ballni qo'lga kiritisa, o'sha g'olib deb hisoblanadi.

- bir ballni olgan ishtirokchi yoki raqibiga 2 ta "Kamchjom" berilsa ham, raqibining "Kamchjom" olgani evaziga ikki ball hisobiga yoritilgani uchun g'olib deb topiladi.

8.1. Ochkolarni bekor qilish: agarda raqib taqiqlangan harakatlar yordamida hujum qilsa, qo'yilgan ochkolar bekor qilinadi, raqibga jazo tayinlanadi.

8.2. Elektron himoyalovchi nimchalar qo'llanilgan holda, tananing o'rta qismiga zarba berish natijasida to'plangan ochkolar himoyalanuvchi nimcha ichida joylashgan asbob bilan avtomatik tarzda ro'yxatga olinadi. Boshqa berilgan zarbalar ham electron shlemlar orqali avtomatik ro'yxatga olinadi, faqat zarba yuzga tekkanda referi va yon hakamlarning o'zaro kelishuvi orqali ball qo'shib berilishi mumkin.

8.3. Agarda ishtirokchi oldindan musobaqa qoidalarini bajarishdan yoki referi ko'rsatmalarini bajarishdan qasddan bosh tortsa, referi uni bir daqiqa o'tgandan so'ng jarima ochkolari asosida mag'lub deb e'lon qilishi mumkin.

9. Taqiqlangan harakatlar va jazo:

- "Kamchjom" qo'llaniladi, "Kyongo" bekor qilingan;
- doyang chegarasi chizig'idan o'tish;
- yiqilish;
- jangdan qochish yoki vaqtni cho'zish;
- zarba berayotgan raqibni itarib yuborish yoki quchoqlab olish, ammo bunda klinchda raqibni turtishga ruxsat berilgan;
- zarbaga blok qo'yish maqsadida oyoqni ko'tarish yoki raqibni oyoqg'iga zarba berish yoki raqibning hujumiga halaqit berish uchun oyoqni uch soniyadan ko'proq lahzaga ko'tarish;
- beldan pastga zarba berish;
- shikastlarni soxtalashtirish;
- "Kalyo" buyrug'idan so'ng raqibga hujum qilish;
- boshga qo'l bilan zarba berish;
- bosh bilan zarba berish;
- klinchga kirishda tizzani qo'yish, tizza bilan zarba berish;
- yiqilgan raqibga hujum qilish;
- raqib yoki murabbiy tomonidan istalmagan so'zlarni aytish yoki har qanday yomon xulq;
- musobaqa jarayonini raqib yoki murabbiy tomonidan to'xtatish;

10. Qarorlar:

10.1. Jarima ballari: **Kengo** (raqibga +0,5 ball) endilikda yo'q, mutloq barcha qoida buzishlar **Kamchjom** (raqibga +1 ball). O'n kamchjom (raqibga +10 ball) – diskvalifikatsiya.

Hisobdagi 20 ballik va undan yuqori ballik farq - jangni to'xtatish va g'alaba (istisno: erkaklar o'rtasidagi oliy darajadagi xalqaro musobaqalarning yarim final va finalida tashkiliy qo'mita qaroriga ko'ra, jang davom ettirilishi mumkin).

10.2. Yuzning ochiq qismiga (feyskik) zarba berish uchun takroriy video lavha bekor qilindi, chunki endilikda yuzning yanada kattaroq qismini yopadigan va katta sezuvchanlikka ega yangi shlemlar qo'llaniladi.

10.3. G1, G2 va hokazo turnirlarga hakamlarni tayyorlashni Taekvondo Butun Jahon Federatsiyasi nazorat qiladi. Hakamlarni hakamlar reytingi asosida tanlashadi.

10.4. To'rtinchi raund bir daqiqa davom etadi. To'rtinchi raunddan keyin ballar bir xil bo'lsa, kompyuterdagi maxsus programma orqali qaysi ishtirokchilar ko'proq zarbalar bergani aniqlanadi va o'sha ishtirokchi g'olib deb topiladi.

10.5. "Nokaut bilan g'alaba" endilikda yo'q. Hozirda bu "hakam tomonidan to'xtatish" deb ataladi.

10.6. Video lavhani takrorlash bitta texnik harakat uchun bahsli lahzadan so'ng, hattoki jang to'xtagandan keyin 5 soniya mobaynida ko'tariladi.

10.7. Har bir jangga yangi kvota beriladi.

10.8. Video lavhani takrorlashni so'raganda, o'rindan turib sizdan kartichka olmaguncha muammoingizni hal qilmaguncha tik turishingiz lozim.

10.9. Raqibning quyidagi qoida buzarlilari uchun kartichka ko'tarib raqibga tanbeh berishlarini so'rash mumkin: chiziqdan o'tish, yiqilish, "kalyo"dan so'ng hujum (to'plangan ballarni olib tashlab tanbeh berish).

10.10. Agarda texnik muammo bo'lgan bo'lsa, unda kvota bo'lmaganda ham hurmat bilan vaziyatni tushuntirishni so'rash mumkin.

10.11. Qo'l bilan tanaga zarba berish/boshga hujum qilish (elektron shlem bo'lganda) tufayli to'plangan ballar uchun kartochka ko'tarilmaydi.

10.12. Nokdaunda yiqilish va chiziqdan chiqish uchun tanbeh berilmaydi.

10.13. Agar boshga qattiq zarba berilgan bo'lsa, va ball bo'lmasa hamda referi hisobni ochsa, ya'ni nokdaunni, unda referi takroriy video lavhani ko'tarishi lozim. Bunda bosh bilan kontakt bo'lganligi hamda kuchli zarba bo'lganligi va referi hisobni ochmaganligini ko'rishadi va bunda bu referini xatosi bo'ladi, jangdan so'ng appelyatsiya yozish mumkin bo'ladi.

10.14. Agar tanaga zarba berilgan bo'lsa va sportchi jangni davom etolmasa (nokdaund), ballar qo'yilmagan bo'lsa va 10 gacha sanalgandan keyin ham turmasa, u yutqizgan bo'ladi. Agarda u tursa, jang davom etadi va ballar berilmaydi.

10.15. Texnik vakil faqatgina bir matchga nechta kvota berilishini hal qila oladi.

10.16. Agar sekundant jang paytida tursa, unga tanbeh beriladi.

10.17. Agar jang paytida elektronika ishlamayotgani aniqlansa, unda elektronika qaysi paytdan boshlab buzilganini tizimdan qarab, jangni elektronika o'chgan paytidan boshlab, yana takroran boshlashadi.

10.18. Arbitrga takroriy video lavhani ko'rish haqidagi qaror qabul qilish uchun limit – 30 soniya.

10.19. Agar video arbitr aniq xatoni ko'rsa, unda uni to'g'rilaydi, agarda ko'rmasa, barchasini qanday bo'lsa shunday qoldiradi. Agar video arbitr bahsli vaziyatni tashkilotchilarning texnik muammolari sababli ko'rmasa, natija o'zgartirilmaydi. Kvota qaytariladi.

11. Referi ballarni qo'sha olmaydi.

12. Tablodagi axborot:

a) hakamlar tomonidan tugmachalarni bosish indikatori:

- ko'k rang – boshga zarba;

- qizil rang – nimchaga zarba;

- oq rang – qo'l bilan tanaga zarba.

b) takroriy video lavhaga kvota bo'lganda - kamera belgisi yonib turadi, yo'q bo'lganda – kamera belgisi yo'q, yoki shu belgi ustidan chizilgan bo'ladi.

v) vaqtning tagida – doirachada - boshga zarba berganda, ball ishlash uchun minimal kuch (kg), kvadratda – nimchaga bujum qilgandagi kuch (kg) ko'rsatilib turadi.

g) To'rtinchi raundda tegishlar soni (baholanmagan ballar) tabloda to'rtburchakdagi hisob bilan yonma-yon ko'rsatiladi.

13. Oyoqni ko'tarish va oyoq bilan turtish, itarish (kat-kik):

a) oyoq turgan darajaning asosiy mezonini bu oyoqning pastki yuzasidir; b) beldan pastdagi har qanday zarba (nimcha darajasidan pastda butun oyoq yuzasi bo'lishi lozim) – bu tanbeh, agarda bundan so'ng darhol hujum, yoki step+hujum bo'lmasa; v) oldingi oyoqni keyingi hujum yoki step+hujumsiz har qanday holatda ko'tarish - bu tanbeh (agarda siz oyoq g'ingizni keskin ko'tarsangiz va uni qaytarib hujumsiz yoki step+hujumsiz qoldirsangiz). Jazodan qutilish uchun sportchi oyog'ini ko'tarib, uni joyga qo'ygandan so'ng, darhol beldan yuqori har qanday zarbani bajarishi yoki step+hujumni bajarishi lozim; g) agarda hujumdan so'ng yoki almashinuvda raqibning oyog'i qasdan bo'lmagan holda, beldan pastroqda tegsa, unda sportchi jazolanmaydi (masalan, Nerio); d) agarda oyoq ko'tarilgan bo'lsa va ko'tarilgan oyoq bilan hujum harakatlari bajarilsa, va to'rtinchi soniyada ko'tarilgan oyoq bilan ball ishlansa, ball olinadi, ammo tanbeh beriladi; e) ikkita yop-chagi ikkita ketma-ketlikda beldan pastga berilsa – bu tanbeh; j) almashinuvda raqiblarning oyoq yuzasi to'qnashuvi jazolanmaydi; z) bel darajasidan yuqoridagi zarbalar jazolanmaydi; i) sportchilarni oyog'i va pastki qismining beldan past darajadagi to'qnashuvi jazolanmaydi; k) agarda oyoq hujum harakatiga bel darajasidan pastga tushsa, va shunda sportchi zarbani bajarmasa, sportchi jazolanmaydi.

14. Qo'l va tana bilan turtishlarning talqini, buning uchun tanbeh va jazo beriladi – Kamchjom (opponentga bir ball):

- raqibning hujum harakatiga qarama-qarshi har qanday turtish, itarish jazolanadi;

- raqibni chiziqliq ortiga itarish, turtish jazolanadi;

- jazolanadigan yagona obxvat bu raqibning hujum qiluvchi oyog'ining obxvat qilish;

- tana hamda qolgan barcha qismlarini qo'l bilan ushlash ham jazolanadi;

- jang hududida raqibning yiqilishiga olib keluvchi turtish, itarish jazolanmaydi.

15. Hujumni to'xtatish uchun oyoqning tizza yoki sonini ko'tarish tanbeh bilan jazolanadi.

9.4. "Pumse" bo'limiga musobaqa qisqa qoidalar

1. Chiqishlar uchun maydoncha. Uning o'lchamlari 12m x 12m bo'lishi kerak. Dastlabki holat maydoncha markazida belgilanadi. Ishtirokchisi, shu joyga qaytib chiqishini tugatishi kerak.

2. Ishtirokchilar kiyimi va ekipirovka.

2.1. Ishtirokchi Taekwondo WT tomonidan belgilangan kiyim (dobok)ni kiyishi, belbog'da, yalang oyoq bo'lishi kerak.

2.2. Sportchining ustida hech qanday qo'shimcha kiyimlar (zargarlik buyumlari, soatlar va h. k.) bo'lishi kerak emas.

3. Musobaqa turlari va ishtirokchilar.

Musobaqalar: individual va jamoa-sinxron.

Individual musobaqalarda erkaklar va ayollar alohida-alohida chiqish qilashadi.

Quyidagi yosh toifalari mavjud:

1. Bolalar 11 yoshga qadar;
2. 12 yoshdan boshlab 14 yoshgacha Kadetlar;
3. 15 yoshdan boshlab 17 yoshgacha o'smirlar;
4. Guruh A-birinchi kattalar (senior A) 18-30 yosh;
5. Guruh B-ikkinchi kattalar (senior B) 31-40 yosh;
6. Guruh C-birinchi mohirlar (senior C) 41 -50 yosh;
7. Guruh D-ikkinchi mohirlar (senior D) 51 yosh va udan yuqori yoshdagilar.

Kichik guruhlariga bo'linishi:

"A" kichik guruhi – rasmiy musobaqalarning saralash bosqichida o'z yoshiga qarab, ishtirok etuvchi asosiy guruh. Ishtirokchilar chiqishlari Taekwondo WT (pumse) tomonidan qabul qilingan musobaqalar umumiy qoidalar bo'yicha baholanadi.

"B" kichik guruhi - rasmiy saralashlarda ishtirok etmaydigan, (yengillashtirilgan) maxsus qoidalar bo'yicha boshlayotgan yosh sportchilar guruhi.

Jamoa - sinxron chiqishlarda - erkaklar va ayollar jamoalariga ajratish mavjud. Bir vaqtning o'zida chiqishlar uchun jamoa uch ishtirokchidan iborat bo'ladi.

4. Musobaqalar o'tkazish.

Musobaqalar 3 bosqichni o'z ichiga oladi: 2 ta saralash bosqichi va yakuniy, ya'ni-final bosqichi.

Saralash bosqichlari:

Har bir ishtirokchi yoki guruh ishtirokchilari toifasiga muvofiq, har bir turda, bitta majburiy Pumse bajarishlari kerak.

Uchinchi davra – final:

Har bir ishtirokchi yoki guruh bitta yoki ikkita pumse (chiqishlar o'rtasida bir daqiqa dam olinadi) bajarishlari kerak. Musobaqa tashkilotchilari chiqishdan bir kun oldin qur'a tashlash yordamida bajarish uchun pumсени aniqlaydilar, ba'zan pumse tanlash huquqini ishtirokchilarning o'zlarida qoldirishadi. Ishtirokchi hozirgi sport malakasidan 2-daraja yuqori pumse tanlashi kerak emas. Barcha pumse turli xil bo'lishi kerak. Shaxsiy va sinxron-jamoa erkin chiqish uchun tanlagan pumse qismi, pumse dasturining majburiy qismiga nisbatan 4 darajadan ortiq sodda yoki 2 daraja qiyinroq bo'lishi mumkin emas. Jamoa bo'lib chiqilgan taqdirda, tanlangan pumse murakkabligini, jamoa a'zolari darajasi pastroq bo'lgan a'zolari bilan kelishgan bo'lishlari kerak. Agar chiqishda uzilish bo'lsa, mashqlarni qayta boshlash (qayta), lekin faqat bir marta ruxsat etiladi. Hakamlar qayta boshlash huquqiga egalar.

5. Pumse tasnifi:

Bolalar (11 yoshgacha)

1-davra – teguk 1, 2, 3, 4 jyan;

2-davra – teguk 5, 6, 7, 8, jyan;

Kadetlar (12-14 yosh)

1-davra – teguk 4, 5, 6, 7 jyan;

2-davra – teguk 8 jyan, koryo, kimgan, tebek;

O'smirlar (14-17 yosh)

1-davra – teguk 5, 6, 7, 8 jyan;

2 - davra koryo, kimgan, tebek;

Birinchi kattalar (18-30 yosh)

1-davra – teguk 6, 7, 8 jyan;

2-davra – koryo, kimgan, tebek, ponon, sipchin;

Ikkinchi kattalar (31-40 yosh)

1 - davra – teguk 6, 7, 8 jyan;

2-davra – koryo, kimgan, tebek, ponvon, sipchin.

Birinchi mohir (41-50 yosh)

1 - davra – teguk 8 jyan, koryo, kimgan, tebek.

2-davra – ponvon, sipchin, djite, xansu.

Birinchi usta (41-50 yosh)

1- davra – teguk 8 jyan, koryo, kimgan, tebek.

2-davra – ponvon, sipchin, djite, xansu.

Ikkinchi usta (50 yoshdan katta)

1-davra - koryo, kimgan, tebek,

2-davra – sipchin, djite, chon kvon, xansu, pyonvon.

6. Baholash usullari:

Chiqishlarni baholash hakamlar tomonidan ballar tizimida amalga oshiriladi.

6.1. Har bir chiqish 10 balli shkala bo'yicha baholanadi: 5 ball – texnika uchun maksimal ball, 5 ball - ko'rsatish (ta'siroat).

6.2. Agar, texnika uchun xatolar mavjud bo'lsa – 0,5 ball baho olib tashlanadi:

1) Pumse ijrosi davomida noto'g'ri yoki ortiqcha harakatlar, Taekwondo WT texnikasiga mos emas (qo'shimcha harakat, noto'g'ri harakat, tugallanmagan noto'g'ri harakat, zarba boshqa darajaga yo'naltirish);

2) bloklar va zarbalar darajasiga rioya qilinmagan, pumse harakatida siljish darajasiga rioya qilinmagan;

3) pumse boshlang'ich holatiga qaytish holatida ortiqcha masofa (20 sm);

4) ishtirokchi holatda turganda yoki harakatda (polga qadam bosilganda shovqin) keraksiz zo'riqish;

5) restart - boshqatdan boshlash, ishtirokchi pumse bajarayotganda 3 soniyadan ortiq to'xtab, boshqa harakatni bajarishi.

6) ishtirokchi zarbalarni va bloklarni diqqat va kuchning konsentratsiyasiz (nigoh yo'nalishi buzilishi) holda bajarishi.

Tashqi chiqishni baholashda ballar yig'iladi, har bir quyidagi chiqish mezonlariga, hakam shkala bo'yicha ball qo'yadi -0,5 balldan (yomon chiqish) 1,0 ballgacha (a'lo chiqish):

1) bajarish vaqtida tovush kuchi va ifoda ko'rsatkichlari (kixap, qadam bosib).

2) Holatlarda turganda mustahkamlikka rioya qilinishi, bajarishda muvozanat.

3) Zarbalar va bloklar bilan holatlarga turish harakati lahzasida kuch va tezlikning (dinamika) mos kelishi.

4) Marom koordinatsiyasi, temp-tezlik darajasi, soflik, aniqlik.

5) "ki" quvvatini ifodalash (tos bilan ishlash, nafas olish).

Chiqishni baholashda umumiy ta'sirot muhim ro'l o'ynaydi. Pumse bajarganda, ishtirokchi samarali, yaqqol ko'rsatilgan shakllarni namoyish etishi kerak. Chiqishga jang ruhi singdirilgan bo'lishi kerak (ishonarlilik, epchillik, qobiliyatlilik, hayolda jangni tasavvur qilish). Barcha harakatlar va harakatlar o'rtasidagi bog'lamlar onson taniladigan bo'lishi kerak.

7. Natijalar e'lon qilinishi.

Hakamlikka 5-7 hakam jalb qilinishi kerak. Agar hakamlar eslatma usul ishlatgan bo'lsalar, jami natijalari yig'ilgandan keyin, hakamlar yakuniy hisobni darhol e'lon qilishlari kerak. Agar elektron hisoblash asboblari usuli ishlatilgan bo'lsa, hakamlar natijalarni yig'ishganlaridan so'ng yakuniy hisob avtomatik ravishda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Hakamlar orasida eng yuqori va eng past ball natijalari avtomatik ravishda olib tashlangandan so'ng yakuniy hisob monitorda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Barcha qolgan baholar o'rta arifmetik hisobda hisoblanadi.

8. Norozilik bildirish tartibi.

Noroziliklar faqat yozma shaklda qabul qilinadi. Chiqish uchun baholar namoyishidan so'ng darhol murabbiy yoki jamoa tanlagan vakil tomonidan norozilik berilishi mumkin. Norozilik, faqat hakam

xatosi yoki hakam-informator baholash ballarini chegirib qolganda yoki baholar namoyishi bilan bog'liq xatolar bo'lgan hollardagina qabul qilinadi. Norozilik masalalari bo'yicha komissiya yoki tumir tashkiliy Qo'mitasi qabul qilgan qaror yakuniy bo'ladi.

X – BOB. HAKAMLAR VA TEXNIK IJROCHI SHAXSLAR

1. Texnik Vakil (TV)

1.1. Tasnif: WT akkreditatsiyasidan o'tgan, Taekwondo (Pumse) bo'yicha jahon Chempionati va Para - Taekwondo jahon Chempionatlaridan tashqari Chempionatlarda WT Texnik Qo'mitasi Raisi Texnik Vakili vazifalarini bajarishi kerak. WT Texnik Qo'mita Raisi yo'q bo'lgan holatda, WT Bosh Kotibi tavsiyasiga binoan WT Prezidenti TVni tayinlashi mumkin.

1.2. Vazifalari: TV Musobaqa Qoidalarining qo'llanilishi to'g'ri o'tkazilayotganligini nazorat qilib, jamoa vakillari kengashiga va qur'a tashlashga raislik qiladi. TV arbitraj qo'mitasi bilan maslahatlashgan holda musobaqa o'tkazish joyi va musobaqaga bog'liq bo'lgan barcha texnik masalalarini hal qilishda, o'zi yakuniy qaror qabul qilish huquqiga ega. TV musobaqa qoidalarida belgilanmagan, musobaqaga tegishli barcha masalalar bo'yicha yakuniy qaror qabul qiladi. TV arbitraj Qo'mita Raisi hisoblanadi.

2. Arbitraj qo'mita a'zosi.

2.1. Tasnif: Bosh Kotib tavsiyasiga ko'ra WT Prezidenti tomonidan qo'mita a'zolari qilib, kim Taekwondo musobaqalari bo'yicha yetarli tajriba va bilimga ega bo'lsa o'sha tayinlanadi.

2.2. Tarkibi: WT tasdiqlagan musobaqalarda – Bitta Qo'mita raisi, a'zolari 6 tadan oshmagan bo'ladi. Raislar yoki WT o'yinlari Qo'mita a'zolari, Qo'mita hakami va WT tibbiyot Qo'mitasi, WT sportchilar Qo'mitasi a'zolari o'z vazifalariga ko'ra arbitraj qo'mitasiga kiritilgan bo'lishi kerak. Biroq, zarur bo'lsa, tarkib Prezident tomonidan tartibga solinishi mumkin.

2.3. Vazifalari: qo'mita - texnik masalalar bo'yicha, musobaqalar ish tartibiga muvofiq amalga oshirilganligiga kafolat berib, TVga yordam beradi. Arbitrajlik Qo'mitasi hakamlik vazifasidagi shaxslar va Video arbitr harakatlarini baholaydi. Arbitrajlik Qo'mitasi bir vaqtning o'zida musobaqa davomida musobaqani boshqarish masalalari munosabatiga sanksiyalar beruvchi Favqulotda Qo'mita sifatida hamharakat qiladi.

3. Video arbitr.

3.1. Tasnif: Video arbitri WT Hakamlar jamoasining raisi tavsiyasiga ko'ra, "S" yoki "I" toifadagi Xalqaro hakami darajasiga ega bo'lgan shaxslar WT Prezidenti tomonidan tayinlangan bo'ladi.

3.2. Tarkibi: Bir (1) Video arbitr va bir (1) Video arbitr yordamchisi hakamlar tarkibi kiritilgan bo'lishi kerak.

3.3. Vazifalari: Video arbitr video takrorini ko'radi va bir daqiqa ichida qabul qilgan qarorini hakamga xabar beradi.

4. Hakam vazifasidagi shaxslar.

4.1. Tasnif: Hakam vazifasidagi shaxs bo'lish huquqiga, WT ro'yxatga olishdan o'tgan xalqaro Hakam sertifikatiga ega shaxs bo'lishi mumkin.

4.2. Vazifalari:

4.2.1. Referi:

4.2.1.1. Referi jangni nazorat qilishi kerak.

4.2.1.2. Referi "Sichjak!", "Kiman!", "Kalyo!", "Keysok!", "Shigan!" va "Kesi!" g'olib va mag'lubni, jarima ballarini, ogohlantirishlar va boshqa jazo choralari e'lon qilishi kerak. Hakam barcha e'lonlarni amalga oshirilgan harakatlar asosida qiladi.

4.2.1.3. Referi belgilangan qoidalarga muvofiq mustaqil qarorlar chiqarish huquqiga ega.

4.2.1.4. Asosan, Markaziy hakam ball hisoblashi kerak emas. Biroq, agar yon hakamlardan biri qo'lini ko'taradigan bo'lsa, chunki ball hisobga olinmadi, u holda markaziy hakam yon hakamlarni to'plab kengash o'tkazadi. Agar, ikki yon hakam ballni tasdiqlab, hisobni o'zgartirishni so'ralsa (1 Markaziy hakam va 3 yon hakam bo'lgan holda). Ikki yon hakamlardan foydalanilgan holatda hisobni o'zgartirish mumkin, faqat ikki yon hakam va markaziy hakam rozi bo'lsa.

4.2.1.5. Hisob teng yoki durang holat bo'lsa, to'rtinchi raund tugaganida 15-moddaga muvofiq, ustunlik haqidagi qaror barcha hakamlar tomonidan chiqariladi.

4.2.2. Hakamlar.

4.2.2.1. Hakamlar to'plangan ballarni darhol belgilaydilar.

4.2.2.2. Markaziy hakamning talabiga ko'ra, hakamlar qabul qilgan qarorlari haqida vijdonan xabar berishlari kerak.

4.2.3. Texnik yordamchi (TY)

4.2.3.1. TY jang tugaguniga qadar tablodagi ko'rsatkichlarni, ballar to'g'riligini, jazolarni, vaqtni nazorat qilib turishi kerak va markaziy hakamni darhol jang bilan bog'liq har qanday muammodan xabardor qilishi kerak.

4.2.3.2. TY yozuvchisi va tizim operatori birgaligida jang boshlanishi yoki to'xtatilishiga bog'liq holatlarni markaziy hakamga xabar berishi kerak.

4.2.3.3. Barcha ballarni, jazo va video takror natijalarini TY eslatmasiga qo'lda yozib boradi.

4.3. Hakam vazifasidagi shaxslar kortda:

4.3.1. Hakam vazifasidagi shaxslar tarkibi: 1 hakam va 3 yon hakam.

4.3.2. Hakam vazifasidagi shaxslar tarkibi: 1 hakam va 2 yon hakam.

4.4 Hakamlik vazifasidagi shaxslarning tayinlanishi.

4.4.1. Musobaqa ish tartibi o'rnatilgandan keyin hakam va hakamlar tayinlanishi lozim bo'ladi.

4.4.2. Hakam va hakamlarning sportchilar bilan millati (hududi, jamoasi) bir bo'lsa, bunday janglarga hakamlik qilishlari uchun tayinlana olmaydilar. Biroq, agar sharoitga ko'ra, hakamlar soni yetishmasa istisno tarzida tayinlangan bo'lishi mumkin.

4.5. Qaror qabul qilish uchun qo'llanma: Hakam va hakamlar qabul qilgan qarorlar yakuniy bo'ladi va ular musobaqaning Arbitraj Qo'mitasi oldida qabul qilgan qarorlari uchun javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

4.6. Uniforma – rasmiy kiyim.

4.6.1. Hakam va hakamlar WT belgilagan rasmiy kiyimni kiyishlari kerak.

4.6.2. Hakam vazifasidagi shaxslar janga xalaqit beradigan predmetlarni, jang zonasiga o'zlari bilan olib kelishlari mumkin emas.

Agar zarur bo'lsa, hakam vazifasidagi shaxslar bellashuv maydonida qo'l telefonidan foydalanish cheklangan bo'lishi mumkin.

5. Ro'yxatga oluvchilar: ro'yxatga oluvchilar jang vaqtini, tanaffus vaqtini va vaqtincha to'xtovlarni nazorat qiladi shuningdek, yozuvlar qilishi va ishlangan ballarni yoki jazolarni oshkora qilishi kerak.

Talqin:

WT Xalqaro hakamlik nizomi bo'yicha tasniflash haqida batafsil ma'lumot, vazifalar, tashkiliy ishlarva h. k., amalga oshirilishi kerak.

Hakam vazifasidagi shaxslar noto'g'ri tayinlanganligi, ular tomonidan janglar qoidaga zid tarzda o'tkazilganligi yoki bir necha bor ataylab xato qilganliklari aniqlanganda, TV Arbitraj Qo'mitasi bilan maslahatlashgan holda, hakam vazifasidagi shaxslarni o'zgartirishi yoki jazolashi mumkin.

Ijro uchun qo'llanma:

Agar har bir hakam qonuniy hujumni har xil baholasa, masalan, bir hakam bir (1) ball, ikkinchisi ikki (2) ball va boshqalari ball bermasa, ball haqqoniy emas deb tan olinadi yoki ro'yxatga oluvchi tayminda xato qilsa, ballarda qoida buzilsa, har qanday hakam xatoni ko'rsatib, tasdiqlash uchun hakamlarni kengashga chaqirishi mumkin. Bunday holda markaziy hakam "Shigan" vaqt e'lon qilib, jangni to'xtatadi va hakamlarni kengashga to'playdi.

Muhokamadan so'ng Markaziy hakam qarorni oshkora e'lon qilishi kerak. Murabbiy, xuddi shu holat uchun video takror talab qilganda, bir hakam vazifasidagi shaxslarni kengashga chaqirishni talab qilsa, bunda Markaziy hakam murabbiydan talabni qabul qilishdan oldin hakamlarni to'plashi kerak bo'ladi. Agar qarorni o'zgartirish to'xtamiga kelingan bo'lsa, murabbiy kvotadan foydalanmasa ham bo'ladi. Hakam nokdaunni aniqlashda xatolikga yo'l qo'ydi va sanay boshlaganda "Set" (uch) yoki "Net" (to'rt) hakamlar qo'llarini ko'targanlarida bu modda qo'llanilishi mumkin.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR:

1. Энциклопедия Таэквон-до WTF. – Сеул, 1987.
2. Kim Djon Rok. WTF Taekwondo. Darslik. – Seul, 1992.
3. Li Chyong Vu. WTF Taekwondo. Darslik. – Seul, 2006.
4. Kim Djon Rok. WTF Taekwondo. Darslik. 3 –jild. –Seul, 1986.
5. Konstantin Gil, Kim CHur Xvan. Taekwondo san'ati. Uchinchi bosqich. – M., 1991.
6. Balsevich V.K. Jismoniy madaniyat hamma uchun va harkim uchun. –T.: Jismoniy madaniyat va sport, 1988.

MUNDARIJA:

SO‘Z BOSHI.....	3
I – BOB. TAEKWONDO WT O‘ZI NIMA?	7
1.1. Taekwondo bilan shug‘ullanishdan maqsad.....	8
1.2. Taekwondoning paydo bo‘lish tarixi	9
1.3. Taekwondoning zamonaviy tarixi	9
1.4. Taekwondoning tuzilishi.....	12
1.5. Shug‘ullanish uchun kiyim	13
II – BOB. TAEKWONDO WT FALSAFASI	14
2.1. Taekwondo ruhi.....	15
III – BOB. TAEKWONDO WT ASOSIY TAMOIYILLARI.....	17
3.1. Hushmuomilalik (YE UL).....	17
3.2. Halollik (YOM CHI).....	18
3.3. Bardoshlilik / Qat‘iylilik (IN NAE).....	18
3.4. O‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini tuta bilish (GUKGI)	19
3.5. Ruh tiyiqsizligi (BAEKJUL BOOLGOOJ)	19
3.6. Etiket (Odob qoidalari)	20
IV – BOB. TAEKWONDO ATAMALARI WT KOREYA SHART- LARI TAEKWONDO BO‘YICHA.....	21
4.1. PUMSEda ishlatiladigan harakatlar	30
4.2. Rasmiy to‘plamlar seriyasi.....	35
V – BOB. TAEKWONDO WT TEXNIKASI.....	37
5.1. Taekwondoning o‘n uchta asosiy harakatlari	42
VI – BOB. TAEKWONDO BO‘YICHA GRADATSIYA TASNIFI	49
VII – BOB. BELBOG‘LARGA ATTESTATSIYA TALABLARI (GIP, DAN, PUM).	52
7.1. Umumiy talablar.....	52
7.2. Maxsus jismoniy tayyorgarlik.....	54
7.3. Sport ustasi darajasiga attestatsiya talablari.....	72
VIII – BOB. PUMSE UMUMIY XARAKTERISTIKASI (POOMSE)	75
8.1. Vazn toifasi.....	85
IX – BOB. MUSOBAQA QOIDALARI	88
9.1. Musobaqalar o‘tkaziladigan joy.....	89
9.2. Musobaqa marosimi	92
9.3. Musobaqalarni tashkil etish tasnifi va usullari	93
9.4. “Pumse” bo‘limiga musobaqa qisqa qoidalari.....	95
X – BOB. HAKAMLAR VA TEXNIK IJROCHI SHAXSLAR.....	106
TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR.....	110

15 000 s,

Baek Mun Jong
Sultanbekov R.M.
Qurbonov S.N.

TAEKWONDO WT

o'quv-uslubiy qo'llanma

Texnik muharrir:
Usmonxo'jayev T.S.

Bosh muharrir:
Aripjanova D.U.

Dizayner:
Dalabayeva N.I.

Kompyuterda sahifalovchi:
Imomov Sh.A.

Nashr.lits. AIN 283, 11.01.16. Bosishga ruxsat etildi 07.04.2017.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturada raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7. Nashriyot bosma tabog'i 7,25.
Adadi 1600. Buyurtma № 15

«ILMIY - TEXNIKA AXBOROTI - PRESS NASHRIYOTI»
100017. Toshkent sh, M-5, 45/4



150008.

ISBN 978-9943-4852-0-4



9 789943 485204

